

**O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi
direktorining agentlik jamoasiga
MUROJAATI**

Qadrli do‘stlar!

Barchamizga ma’lumki, har tomonlama rivojlangan, farovon jamiyat va davlatni barpo etish oson yo‘l emas. Bu yo‘lda xalq xizmatchilari – davlat tashkiloti xodimlaridan, eng avvalo, halollik talab etiladi.

Muhtaram Prezidentimiz mamlakat rivojlanishining har qanday bosqichida eng jiddiy xavf-xatarlardan biri bo‘lgan korrupsiya masalasiga alohida to‘xtalib, **“Davlat tuzumini ichidan yemiradigan, ijtimoiy barqarorlik kushandasi bo‘lgan korrupsiya balosiga qarshi, byurokratiyaning har qanday ko‘rinishlariga, odamlarni mensimaslik, mahalliychilik va guruhbozlik illatlariga qarshi barchamiz keskin kurash olib borishimiz kerak”**ligini alohida ta’kidladilar.

Mamlakatimizda korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi murosasiz kurashishning ilg‘or xalqaro standartlarga asoslangan tizimini joriy etish bo‘yicha izchil choralar ko‘rilmoqda.

Jumladan, Yoshlar ishlari agentligi faoliyatida ochiqlik, oshkoralik va shaffoflikni ta’minlash, jarayonlarni raqamlashtirish hamda aholi, ayniqsa, yoshlar oldidagi hisobdorlikni yo‘lga qo‘yish orqali samarali boshqaruv va ta’sirchan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun zarur sharoitlar yaratilmoqda.

Agentlikda ilk bor korrupsiyaviy xavflarni aniqlash va tizimli tahlil qilish, ularni keltirib chiqaruvchi omillarni bartaraf qilishga mas’ul bo‘lgan korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi tashkil etildi.

Korrupsiya holatlarining har qanday ko‘rinishlariga nisbatan murosasiz munosabatda bo‘lish, bu borada tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – **Agentlik tizimidagi har bir xodim, xususan, mahalladagi yoshlar yetakchilari faoliyatining kundalik qoidasiga aylanishi shart.**

Buning uchun jamoamiz oldiga qo‘yilgan vazifalarni **vijdonan, xolis va yuqori saviyada amalga oshirishimiz lozim.**

Shu bois, korrupsiya bilan bog‘liq bo‘lgan ariza, shikoyat yoki takliflaringizni Agentlikning maxsus aloqa kanallari orqali o‘z vaqtida xabar berishga chaqiramiz.

Yoshlar korrupsiyadan butunlay xoli bo‘lgan tizimgagina ishonadi. Umid qilamanki, birgalikda bunday tizim yaratishni albatta uddalaymiz!

Alisher Sa’dullayev